


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi

 Abdijaliev Maxmud Karamatdinovich	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi rahbari	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, To'rtko'l guzari ko'cha 59 uy
	Telefon:	0(361) 22326 03
	E-mail:	qrmxa@exat.uz
	Qabul kunlariari:	Duyshanba-Juma16:00-18:00

 Dosanov Ernazar Maulenbaevich	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi rahbari o'rinbosari	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, To'rtko'l guzari ko'chasi 59 uy
	Telefon:	0(361) 2236723
	E-mail:	qrmxa@exat.uz
	Qabul kunlariari:	Dushanba-Juma 14:00-16:00

Davlat xizmatlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining vazifalari va funksiyalari:

Quyidagilar hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar, davlat soliq xizmati organlarining rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari (keyingi o'rinlarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari deb ataladi) bilan davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida hamkorlik qilish;
- davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish;
- davlat xizmatlari markazlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- davlat xizmatlari ko'rsatishning muqobil shakllarini rivojlantirishda davlat xizmatlari markazlarini qo'llab-quvvatlash;
- davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;
- davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.

Boshqarma quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- hududiy boshqarmalar faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi;
- Davlat xizmatlari markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumatning qarorlari va farmoyishlari hamda Agentlikning buyruqlari ijrosi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlaydi.
- davlat xizmatlari markazlari faoliyati ustidan rahbarlik va nazorat amalga qiladi;
- davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, yuridik va jismoniy shaxslar bilan hamkorlik qiladi;
- davlat xizmatlari markazlari xarajatlarini moliyalashtirishni, buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qiladi;
- davlat xizmatlari markazlari moddiy-texnik ta'minlanishini, shu jumladan, mobil (sayyor) davlat xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etadi;

- yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil qiladi;
- vakolatiga kiradigan tezkor, tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlabchiqarish-xo'jalik va boshqa masalalarni hal etish bilan shug'ullanadi.